

MEDIAMATNLAR TARKIBIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QO‘LLANILISHI

Jazilova Shahlo Bahodir qizi

O‘zDJTU, Media va kommunikatsiya fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tilidagi ommaviy axborot vositalarida qo‘llanilgan frazeologik birliklarning o‘rni ularning uslubiy vazifalari haqida fikr yuritilgan. Misollar har ikki tildagi OAv vositalaridan olingan.

Kalit so‘zlar: Frazeologik birlik, frazeologiya, ibora, ekspressiya, mediamatn, neytral ma‘no.

Kirish. Tilshunoslikning yangi sohasi hisoblangan medialingvistikada publisistik matnlar, ya‘ni mediamatnlar tahliliga e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, mediamatn tarkibidagi frazeologik birliklarning ahamiyati haqida Sh.Usmonova shunday deydi: “Frazeologik birliklar o‘ziga xosligi sababli gazeta tilining kerakli uslubiy qismiga aylandi. Baholash jarayonida esa gazeta frazeologiyasini shakllantirib, unda shtamlarni hosil qiladi. Uning tizimlanganligini intensivlik va tezkorlik ta‘minlaydi”⁷³.

Gazeta matnlarida ingliz va o‘zbek tilidagi frazeologizmlardan foydalanishning ma‘lum yo‘nalishi mavjud bo‘lib turg‘un iboralar yordamida ifodalanadi. Ularga “ommaviy o‘quvchiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadigan va gazeta nutqining tuzilmaviy-uslubiy alomatlarini amalga oshirish vositasi bo‘lgan qizg‘inlik bosimi manbai bo‘lish xosdir”⁷⁴.

Yozuvchi va jurnalistlar mediamatnda frazeologik birliklardan quyidagi ma‘nolarni ifodash uchun foydalanadi:

Biror voqea va hodisaga obrazli, ta‘sirli ma‘no berish uchun. Frazeologizmlar OAVda ishlatiladigan matnlarini ekspressiv ma‘no bilan boyitadi. “Ekspressiya” so‘zi aslida lotincha so‘z bo‘lib, “kuchaytirilgan; ifodali, tasviriy” degan ma‘noni anglatadi. Nutqning ta‘sirchanlik xususiyatini ifodalaydi.

Masalan: “Gitler Germaniyasini o‘ziga qanchalik **mahliyo qilib** qo‘yganini eslash kifoya. Bugungi hayotimizni **zangori olov** – gazsiz tasavvur qilish qiyin”(V. 2023. №3); “With days to go before The United States **bumps up** against a technical limit on...” (NYT.2023. №59.6722). “They welcomed the law **with open arms**”(WSJ.2019.№15) kabi gaplarda “**mahliyo qilmoq**”, “**zangori olov**”, “**bumps up**”, “**with open arms**” frazalari orqali gaplarning ma‘nosi oshirilgan.

Matbuot matnlarida ta‘sirchanlik asosiy xususiyatlardan biri hisoblanganligi sababli uni ifodalash uchun maqol va matallarga ham tez-tez murojaat qilinadi. Ular ta‘sirchanlik va hissiyotni oshirish, auditoriya e‘tiborini jalb etish uchun qo‘llaniladi va gazeta matnlarida

⁷³ Usmonova Sh.A. Bosma mediadiskurs tendensiyalari: standartlik va ekspressivlik. Monografiya. Toshkent, 2022

⁷⁴ Гусейнова Т.С. Фраzeология в газете: пассионарный аспект. Историческая и социально-образовательная Мысль. Том 6 №6 Часть 2, 2014. Historical and social educational idea's Tom 6 #6, Part 2, 2014. - С.71-74.



ekspressiyani kuchaytirishda yordam beradi⁷⁵: “O‘z uying o‘lan to‘shaging”, “Mehnat mehnatning tagi rohat” kabilar. Misol tariqasida “Ishonch” gazetasida quyidagi satrlarini keltiramiz: “Masalan, *“Laylak kelmay, yoz bo‘lmas, qirg‘iyak chopmay, kuz bo‘lmas”*, *“Yoz kelganini laylak bilar, qish kelganini – ola qarg‘a”*, *“G‘oz kelgani – yoz kelgani”*, *“G‘oz kelsa, yoz kelar, qarg‘a qag‘illasa, qish kelar”*, *“Savr kirmay, yoz bo‘lmas”* kabi naqlarni eslang” (Ishonch.2023.№9). “The old saw that *“better to be born lucky than born rich”* finds a remarkable illustration in the case of a young physician of Illinois, who, unless report belies him, has stumbled accidentally into the possession of a fortune” (WSJ.2022.№22). Bu kabi iboralar matnda ta’sirchanlikni oshirish uchun ishlatilgan.

Yuqoridagi fikrlarga zid holda frazeologizmlar neytral ma’no ham ifodalashi mumkin. Bu haqida Jumaniyozov X. o‘zining maqolasida shunday ma’lumot beradi: “Neytral yoki neytral-adabiy frazeologizmlar ishlatilishi sohasi juda keng. Ular barcha funksional uslublarda uchraydi — kundalik turmushda ishlatiladigan uslubda, badiiy uslubda (ko‘pincha muallif nutqida), publisistik uslubda, ilmiy uslubda va boshqalar. Neytral frazeologik birliklar, so‘zlar singari, boshqa nutq uslublari frazeologizmlar stilistik differensiasiya (farqlanish, tabaqalanish)ning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ular lug‘atlarda hech qanday belgisiz keladi. Lekin bu hech qanday ma’no bermasada, neytral frazeologik birliklar mutlaqo ta’sirchanlikdan holi”⁷⁶.

Yu. S. Stepanov haqqoniy ravishda ta’kidlaganidek, “neytral uslub — mavhum tushuncha emas, balki umumxalq tilning haqiqatan mavjud uslublarning biri, ya’ni amalda odamlar bir-biri bilan aloqa qilishda ishlatiladigan, chunki bu uslub emosional-ekspressiv va ijtimoiy elementlardan mahrum bo‘lmagan, faqat kam darajada ularga ega bo‘lgan, ya’ni boshqa uslublarga qaraganda”⁷⁷. Bundan anglashiladiki, hamma frazalar ham ta’sirchanlikni oshiruvchi ma’noga ega emas. Ular mediamatnlarda tez-tez uchrab turadi. Masalan: *came up, account for, call for, back out, keep at, eat out*, yoki o‘zbek tilida *tan olmoq, qadr topmoq, oldini olmoq, so‘zga chiqmoq, turmush qurmoq* kabi iboralar emotsional-ekspressivlikni ifodalamaydi.

Iboralar ko‘llanilishi ma’lumotning ekspressivligini oshirmasligi xam mumkin: “Inqirozni *boshdan kechirayotgan* Gresiyaga yordam ko‘rsatish to‘grisida kelishuvga erishdilar” (R. Poytaxt), “...dunyoda ana shunday garoyib voqealar *quloqqa chalinib turadi...*” (TV. O‘zbekiston), “...yaxshi niyat haqidagi fikrlariga *quloq tutamiz*” (R. Mash’al). Bunday iboralar shablon iboralar xisoblanadi.

Quyida gazeta matnlaridan misollar keltiramiz: “Tesla, which once boasted of boundless *demand for its products, resorted recently to a tried and true tactic for old-line auto makers trying to move cars off the lot*” (WSJ.2023.№14). “But rundown local hospitals and health centres are unable *to cope with* a crisis that they were never equipped for”(BBC.com). “Bundan tashqari,

⁷⁵Teshabaeva D.M., Bakieva G.X., Israil M.I., Toshmuxeamedova L.I., Nuritdinova M.Ch. Jurnalistika. III jild. Medialingvistika va tahrir. – T.: O‘zbekiston, 2019

⁷⁶ Jumaniyozov, X. I. Uslublararo yeki neytral frazeologizmlar / X. I. Jumaniyozov, X. R. Ruzmetov. — Tekst : neposredstvenniy // Molodoy ucheniy. — 2019. — № 24 (262). — S. 537-539.

⁷⁷ <https://moluch.ru/archive/262/60432/> (data obrasheniya: 04.05.2023).



ijtimoiy daftarlarga kiritilgan yigit-qizlarimizning *bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratyapmiz*" (Mahalla. 2023. №11).

XULOSA. Tilda tayyor holda saqlanadigan birlik sifatida FB lar har doim aniq ma'no, domiy tarkib hamda strukturaga ega birliklardir. Tilning frazeologik fondi haqida gap ketganda tilshunoslar ularning an'anaviyligi, turg'unligi son hamda sifat jihatidan o'zgarmas birliklar ekanligini alohida ta'kidlab o'tadilar. Mediamatn tarkibiga o'ziga xos ma'no yuklaydigan FB lar tilda o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bu frazeologizmlar jurnalistik nutqni jonli-rang-barang bo'lishini ta'minlab, unga o'ziga xos ekspressivlik yuklaydi. Ya'ni so'zning konotativ, ko'chma ma'noga ega bo'lishi iboralarga xosdir. Bunday belgilar mediamatn tarkibida pragmatik effektini hosil qilishda yordam berib, ekspressivlikni oshiradi. Shuni aytib o'tish kerakki, hech qanday ta'sirni oshirmaydigan frazeologik birliklar ham borki, ular matn tarkibida standart holda ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Teshabaeva D.M., Bakieva G.X., Israil M.I., Toshmuxamedova L.I., Nuritdinova M.Ch. Jurnalistika. III jild. Medialingvistika va tahrir. – T.: O'zbekiston, 2019
2. Usmonova Sh.A. Bosma mediadiskurs tendensiyalari: standartlik va ekspressivlik. Monografiya. Toshkent, 2022
3. Гусейнова Т.С. Фразеология в газете: пассионарный аспект. Историческая и социально-образовательная Мысль. Том 6 №6 Часть 2, 2014. Historical and social educational idea's Tom 6 #6, Part 2, 2014. - С.71-74.
4. Jumaniyozov, X. I. Uslublararo yeki neytral frazeologizmlar / X. I. Jumaniyozov, X. R. Ruzmetov. — Tekst : neposredstvenniy // Molodoy ucheniy. — 2019. — № 24 (262). — S. 537-539.
5. <https://moluch.ru/archive/262/60432/> (data obrasheniya: 04.05.2023).